

O‘ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISH KO‘RSATKICHLARINI TAHLILI

Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o‘qituvchisi

Ibragimova Mubinabonu

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida masofaviy bank tizimidagi amalga oshirilayotgan islohatlar va bu tizimning rivojlanish darajasiga oid istiqbolli fikrlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: masofaviy bank xizmatlari, bank-mijoz , internet-banking, SMS-banking, mobil-banking .

USE OF REMOTE BANKING SERVICES IN UZBEKISTAN ANALYSIS OF INDICATORS

Abstract: This article presents the reforms being carried out in the remote banking system in the Republic of Uzbekistan and the perspective of the level of development of this system.

Key words: remote banking services, bank-client, internet-banking, SMS-banking, mobile-banking.

Respublikamizda so‘nggi yillarda bank tizimini rivojlantirish, ayniqsa, sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish qaratilgan konstruktiv choralar ko‘rilmogda.


Davlatimiz rahbari aytib o‘tganidek, “Bank sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi – tijorat banklarini mijoz uchun ishlashga o‘rgatishdan iborat”.

Shularga uyg‘un tarzda bugungi kunda mamlakatimizda tijorat banklari tomonidan ko‘rsatilayotgan masofaviy bank xizmatlar holatini yaxshilash, qulay va zamonaviy xizmatlarni joriy etish maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda banklarning masofaviy xizmatlarini ko‘rsatish sifati va ko‘lamini kengaytirishda Prezidentimizning 2018-yil 9-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni dasturilamalda to‘lov tizimini yanada rivojlantirish, shu jumladan, masofadan turib bank xizmatlaridan foydalanish hamda yangi texnologiyalardan foydalanish asosiy vazifa etib belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi bank-moliya tizimida so‘nggi yillarda aynan shunday zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash sohada qulaylik va yangiliklar yaratayotgani shundan dalolat beradi

Jumladan, yurtimizda iste‘molchilarga taklif etilayotgan masofaviy bank xizmatlaridan “Bank-mijoz”, “Internet-banking”, “SMS-banking” hamda “Mobil-banking” shakllari mijozlar tomonidan keng foydalanilmoqda.


Masofadan bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni
1 yanvar holatiga



Tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2012 yilda 56735 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilga kelib bu ko'rsatkich 20203384 ga yetdi, ya'ni 356 barobarga oshgan.

Shuningdek, internet tarmog'idan foydalanayotgan aholi soni ham keskin ko'paymoqda. Bu esa masofaviy bank xizmatlar ko'rsatish tizimi zimmasiga yanada katta vazifalar yuklaydi. Texnologik platforma mobil aloqa yoki internet mavjud bo'lgan har qanday joyda plastik kartochka bo'yicha tranzaksiyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni
(turlari bo'yicha)
1 yanvar holatiga



Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimdan foydalanuvchilar biz yuridik va jismoniy shaxslarga ajratadigan bo'lsak, jadval ma'lumotlariga ko'ra jismoniy shaxslar ko'rsatkichi ancha yuqoriligini ko'ramiz. Bu shundan dalolat beradiki aholining masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish darajasini oshganini ko'rsak bo'ladi.

Aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh mablag'larini bank sektoriga jalb etish hamda bank daromadlilikini oshirish va xizmat turlarini ko'paytirish maqsadida mamlakatimiz banklarida "Internet-banking", "Bank mijoz", "SMS-Banking" va "Mobil-banking", ular uchun mo'ljallangan "Click", "UzCard", "UPAY", "Payme" va boshqa ko'pgina ilovalari yanada rivojlantirilmoqda.

Bularning barchasi mijozlar bank uchun emas, balki bank mijozlar uchun tamoyilini masofadan turib ham ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Elimizning uzog'ini yaqin, og'irini yengil qilish esa eng asosiy vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Murojaat (2018) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Xalq so'zi gazetasining 23 dekabr soni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 3620-sonli Qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank statistik byuleteni, 2018-2020 yillar
4. Спильниченко В.К. Трансформация банковских платежных систем в экономике России // Экономический журнал. 2012. № 2 (26).
5. Лиходеева Н. И. Применение электронного банкинга при заключении и исполнении банковских договоров [Текст] / Н. И. Лиходеева // Юридическая работа в кредитной организации. - 2014. - No2. - С. 23-27.

